



SCIENTIFIC STUDY OF NATURAL GEOGRAPHICAL PROCESSES

Bakhtiyor Zikirov

Lecturer

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

E-mail: zikirovbakhtiyor@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Natural geographical processes, erosion, relief, endogenous processes, exogenous processes, anthropogenic processes, soil, landscape, geodynamic processes, tectonic movements and structures, geological work, earthquakes, volcanoes, climatic factors.

Received: 26.03.25**Accepted:** 28.03.25**Published:** 30.03.25

Abstract: This article provides information about the concept of natural geographical processes. The emergence of natural geographical processes, the causes of their occurrence and the consequences after their occurrence. Types of natural geographical processes and the geography of their distribution. The scientific views of scientists who have conducted research on the classification of natural geographical processes are presented.

TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLARNING ILMIY JIHATDAN O'RGANILISHI

Bakhtiyor Zikirov

o'qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

E-mail: zikirovbakhtiyor@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tabiiy geografik jarayonlar, eroziya, relyef, endogen jarayonlar, ekzogen jarayonlar, antropogen jarayonlar, tuproq, landshaft, geodinamik jarayonlari, tektonik harakatlar va strukturalar, geologik ish, zilzila, vulqon, iqlim omillari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy geografik jarayonlar haqida tushuncha. Tabiiy geografik jarayonlarning vujudga kelishi, paydo bo'lish sabablari va ular ro'y bergandan keyingi oqibatlar. Tabiiy geografik jarayonlarning turlari va ularni tarqalish geografiyasi. Tabiiy geografik jarayonlarni tasniflash masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy qarashlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

НАУЧНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРИРОДНЫХ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Бахтиёр Зикиров

Преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

E-mail: zikirovbakhtiyor@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Природные географические процессы, эрозия, рельеф, эндогенные процессы, экзогенные процессы, антропогенные процессы, почвы, ландшафт, геодинамические процессы, тектонические движения и структуры, геологические работы, землетрясения, вулканы, климатические факторы.	Аннотация: В статье дается понимание естественных географических процессов. Возникновение природных географических процессов, их причины и последствия после их возникновения. Типы природно-географических процессов и география их распространения. Приведены сведения о научных взглядах ученых, проводивших исследования по классификации естественно-географических процессов.
---	--

KIRISH

Biz ushbu maqolada tabiiy geografik jarayonlar deb atayotgan tabiiy jarayonlar Yer haqidagi va tabiiy fanlarning har birida o'ziga xos nom bilan atalgan. Tabiiy jarayonlar nomi ko'pincha Yer haqidagi va tabiiy fanlar qanday nomlansa (Geografiya, Astronomiya, Geologiya, Biologiya, Geofizika, Geokimyo, Tuproqshunoslik) shu nom bilan bog'liq ravishda (Tabiiy geografik jarayonlar, Astronomik yoki Astrofizik jarayonlar, Geologik jarayonlar, Biologik jarayonlar, Geofizik jarayonlar, Geokimyoviy jarayonlar va boshqalar) nomlangan.

ASOSIY QISM

Ma'lumki geografiya fani ikki yirik tarmoqqa bo'linadi, tabiiy geografiya va iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (xorijda mazkur fanning nomi ko'pincha inson geografiyasi deb nomlanadi), o'rganilayotgan masala esa tabiiyki, tabiiy geografiyaning bahs mavzusiga kiradi. Shuning uchun tabiatda yoki tabiiy geografik ta'bir bilan aytganda tabiiy geografiyada sodir bo'layotgan har qanday jarayonlar – tabiiy geografik jarayonlar deb nomlanadi. Gap shundaki geografik qobiqda kechayotgan tabiiy jarayonlarni tasniflash turli olimlar va turli fanlar doirasida juda xilma-xil nomlanadi.

Tabiiy geografiya – bu Yer sayyorasidagi yagona tizimning bir qismi sifatida uning tarkibidagi tizimlarni va ularning bir-biri bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi. U astronomiya, matematik geografiya, meteorologiya, iqlimshunoslik, geologiya, geomorfologiya, biologiya, biogeografiya, pedologiya (tuproqshunoslik) va tuproqlar geografiyasini o'z ichiga oladi. Tabiiy geografiya Yerdagi odamlar populyatsiyasini o'rganadigan inson geografiyasidan farq qiladi, garchi u insonning atrof-muhitga ta'sirini o'z ichiga olsa ham.

Tabiiy geografik jarayonlar va ularning qanday nomlanishi Yer haqidagi fanlarning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda turlicha nomlangan hamda turlicha tasniflangan.

Qadimgi Yunonistonda geografiya fan sifatida paydo bo'lganidan boshlab yaqin o'tmishgacha – XIX asrning oxirigacha faqat tabiiy fan bo'lgan. Buni Strabonning Geografiyasida, Eratosfenning Geografikasida yoki Dionis Periegetning Perieget Oykumenasida ko'rish mumkin.

Yaqin o'tmishda esa Aleksandr Gumboldtning Kosmos asarida ham guvoh bo'lasiz. U XVI asrning boshlarida nashr etilgan Martin Fernandes de Ensisoning “Summa Geografia” asari orqali geografiya fanini tabiiy fan deb hisoblagan.

XVIII-XIX asrlarda Jeyms Xatton (Uniformitarizm tezisi) va Jorj Kyuve (Katastrofizm) tarafdorlari o'rtasida geologiya fani sohasidan olib kelingan tortishuv geografiya sohasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

XIX asrdagi sanoat inqilobi tabiiy geografiyaning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu Yevropa mustamlakachilik ekspansiyasi boshlanishiga va mustamlakachi davlatlar universitetlarida geografiya bo'limlarining yaratilishiga hamda milliy geografik jamiyatlarining tashkil etilishiga olib keldi.

Sibirni o'rganish bunga misol bo'la oladi. Rus geografiyasining otasi Mixail Lomonosov 1750-yillarning o'rtalarida Sibirda tadqiqot olib borish uchun Rossiya Fanlar akademiyasining geografiya bo'limida ishlay boshladi. Ular tuproqning organik kelib chiqishi va muzliklarning harakati to'g'risida keng qamrovli tadqiqotlar olib bordi. Shu bilan geografiyaning yangi tarmog'i - glatsiologiyaga asos solindi. 1755-yilda uning tashabbusi bilan Moskva universiteti tashkil etildi, u yerda geografiyani o'rganish va geograflar tayyorlash boshlandi.

Tabiiy geografik jarayonlarni o'rganishda rus tabiiy geografiya maktabining hissasi katta bo'ldi. XIX asrda V.V. Dokuchayevning “Rus qora tuprog'i” asari muhim ahamiyatga ega bo'ldi va ilmiy tuproqshunoslik faniga asos soldi. Bu davrda fanga rus geograflari: N.M.Sibirtsev, P.P. Semyonov-Tyanshanskiy, K.D. Glinka, S.S.Neustruyev va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

Ch.Darvin tomonidan ishlab chiqilgan evolyutsion nazariya biogeografiya fanining rivojlanishiga va ushbu nazariya g'oyalari izdoshi bo'lgan F. Ratsel ishlariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi.

XX asr boshlarida Amerika Qo'shma Shtatlaridan U.M.Devis eroziya sikli nazariyasi – “peneplen”ni ishlab chiqdi va bu nazariya tabiiy geografik jarayonlarning asosiy paradigmasiga aylandi.

Tabiiy geografiya fanida tabiiy geografik jarayonlar tasnifi odatda yer qobiqlari (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera) doirasida yoritiladi. L.P.Shubayevning 1975-yil nashr etilgan “Umumiy yer bilimi” o'quv qo'llanmasida ham tabiiy geografik jarayonlar alohida tasniflanmagan. Ilmiy adabiyotda Yerning harakatlari va tektonik harakatlar bilan bog'liq

ko'pgina tabiiy geografik jarayonlar "Yerning umumiy morfologiyasi" bobida, atmosferada yuz beruvchi tabiiy geografik jarayonlar "Atmosfera va yer iqlimlari" bobida yoritilgan. Okean va dengizlarda, yer osti va yer usti suvlari ta'sirida, daryolar, ko'llar va muzliklar ta'sirida sodir bo'ladigan tabiiy geografik jarayonlar "Gidrosfera" bobida, relyef hosil bo'lishi bilan bog'liq tabiiy geografik jarayonlar "Materik yer po'sti va quruqlik relyefi" bobida yoritilgan.

V.V.Bratkov, N.I. Ovdiyenkolarning 2005-yil nashr etilgan "Geoekologiya" nomli o'quv qo'llanmasida mualliflar tabiiy geografik jarayonlarni litosfera, atmosfera, gidrosfera va landshaftlarda sodir bo'luvchi turlarga ajratgan. Litosferadagi tabiiy geografik jarayonlarga cho'kindi jinslar to'planishi (sedimentatsiya), endogen jarayonlar (epeyrogen harakatlar, orogen harakatlar), ekzogen jarayonlar (nurash, denudatsiya, eol jarayonlar, eroziya, akkumulyatsiya, nivatsiya), litosferadagi antropogen jarayonlar (foydali qazilma konlarining tugashi oqibatlari, Yer qobig'ining antropogen cho'kishi, antropogen zilzilalar, geomorfologik jarayonlarning antropogen faollashuvi) kiritilgan. Gidrosferadagi tabiiy geografik jarayonlarga asosan suvning to'planishi, saqlanishi va dinamikasi, suvning aylanishi va suv balansi, gidrosferadagi antropogen jarayonlar (suv omborlarini qurish va ularning atrof-muhitga ta'siri, suv omborlarining ekologik ta'siri, oqava suvlar va uning shakllanishi, Yer usti suvlarining ifloslanishi, Yer osti suvlarining ifloslanishi, dunyo okeanining ifloslanishi, dengizlar ifloslanishining geografik xususiyatlari) haqida to'xtalgan. Geokosmosdagi (atmosfera) tabiiy geografik jarayonlar sifatida Quyosh nurlarining yutilishi va qayta taqsimlanishi (bug'lanish, sirkulyatsiya jarayonlari, issiqlik rejimining namlik aylanishi bilan o'zaro ta'siri, atmosferaning elektr maydoni, atmosferadagi optik hodisalari), atmosferadagi antropogen jarayonlar (havo tarkibining o'zgarishi, issiqxona samarasi, havoni ifloslovchi asosiy antropogen manbalar) tadqiq etilgan.

Biosferadagi tabiiy geografik jarayonlarga tuproq hosil bo'lish jarayonlari (qutbiy, boreal, subboreal, subtropik va tropik tuproq hosil bo'lish jarayonlari), tuproqlardagi antropogen faoliyat (mexanik, agromeliorativ va kimyoviy ta'sir, tuproqlarning sho'rlanishi va ikkilamchi sho'rlanish, o'simliklarning o'zgarishi orqali tuproqlarning o'zgarishi, hayvonlarning o'zgarishi orqali tuproqlarning o'zgarishi, tuproqlarda suv va shamol eroziyasi), o'simlik qoplamini va hayvonot olamiga antropogen ta'sir o'rganilgan.

Shuningdek, landshaftlardagi vertikal (komponentlararo) va gorizontal (hududiy) tabiiy geografik jarayonlar tavsiflangan. Landshaftlarda namlik aylanishi, biogeokimyoviy sikl, moddalarning abiotik migratsiyasi, landshaftlarning antropogen o'zgarishi (o'rmonlarning kesilishi, cho'llashish, tuproqlar degradatsiyasi) yoritilgan.

X.Chiniqulov, A.H.Jo'liyevlarning 2011-yil nashr etilgan "Umumiy geologiya" darsligi to'rt qismga bo'lingan. Darslikning ikkinchi va uchinchi qismlarida o'rganayotganimiz – tabiiy geografik jarayonlar keng yoritilgan. Jumladan, yerning ichki geodinamik jarayonlari deb

nomlangan ikkinchi qismida tektonik harakatlar va tektonik strukturalar, litosfera plitalari tektonikasi nazariyasi, zilzila, effuziv magmatizm – vulkanizm, magmatizm, metamorfizm nomli boblar mavjud. Ekzogen jarayonlar deb nomlangan uchinchi qismida ekzogen jarayonlar haqida tushuncha, nurash, shamolning geologik ishi, suv oqimlarining geologik ishi, yer osti suvlarining geologik ishi, muzliklar va ularning geologik ishi, dengiz va okeanlarning geologik ishi, ko‘l va botqoqliklarning geologik ishi kabi mavzular alohida boblarga ajratib o‘rganilgan.

A.Nizomov, A.N.Alimqulov, Z.Tillyaxodjayevalarning 2015-yil nashr etilgan “Tabiiy geografik jarayonlar” o‘quv qo‘llanmasida mualliflar tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo‘lishiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi. 1-guruh, Tektonik harakatlar tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar. 2-guruh, Zilzilalar tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar. 3-guruh, Vulqonlar otilishi tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar. 4-guruh, Iqlim omillari ta’sirida yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar. 5-guruh, Suv faoliyati tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar. 6-guruh, Muzliklar ta’sirida yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar. 7-guruh, Gravitatsion kuch yetakchiligida yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar. 8-guruh, Antropogen ta’sir tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar.

Yana bir internet manbaida tabiiy geografik jarayonlar geologiya fani nuqtai-nazaridan tasniflangan.

Geologik jarayonlar ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) jarayonlarga bo‘linadi.

Ekzozogen jarayonlar Yer Quyoshdan energiya olishidan, Yerning Quyosh atrofida, o‘z o‘qi atrofida va Oyning Yer atrofida aylanishidan, og‘irlik kuchidan hosil bo‘ladi. Ekzozogen jarayonlar joy relyefi shakllanishiga olib keladi. Harorat, shamol, suv, dengiz qalqishi, muzliklar tog‘ jinslarini yemiradi va okean va dengizlardagi Yer yuzasining pasaygan uchastkalarini keltirib chiqaradi.

Endogen jarayonlar Yerning ichki energiyasi ta’sirida shakllanadi.

Ekzogen jarayonlar yer qobig‘i va uning yuqori qismlarida paydo bo‘lib, ular atmosfera, gidrosfera va biosfera qobiqlarining o‘zaro ta’siri natijasidir. Bu jarayonlar yemiruvchi va yaratuvchi ish bajaradi. Yemirish jarayonlari nurash va denudatsiyani o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Братков В.В., Овдиенко Н.И. «Геоэкология», Москва-2005.
2. Низомов А., Алимқулов Н., Тилляходжаева З. “Табиий географик жараёнлар”, Т.: “Fan va texnologiya”-2015.
3. Чиникулов Х., Жўлиев А.Х. “Умумий геология”, Т.: “Мрити”-2011.
4. Шубаев Л.П. “Умумий ер билими”, Т.: “Ўқитувчи”-1975.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/physical_geography
6. <https://studfile.net/preview/5592900/page:3/>